

Ijtimoiy tarmoqda nima gaplar?

Ijtimoiy tarmoqlarni "Ma'rifat"da kuzating

Ko'pchilik yil davomida tarmoq foydalanuvchilarining doimiy "o'la"si bo'lib qolgan Shuhrat Ganiyevni kinoya bilan "yil odami" deb e'tirof etdi.

2-bet

Fikr, mulohaza, taklif

Ilm-fanimiz oyog'idagi tushov

Qotib qolgan qarashlarga asoslangan ilmiy-tadqiqot tizimining zanjirlari hali uzilgani, ilm-fan to'la ma'noda ozodlikka yetisholgani yo'q. O'zbekistonda Oly attestatsiya komissiyasi sobiq ittifoq davridan qolgan eski qoliplar asosida faoliyat yuritayotgani fan taraqqiyotiga tosiq bolayotganga o'xshaydi.

5-bet

Onlayn muloqot

«1000 \$ maoshga qachon yetamiz?»

25 yil o'qituvchilar paxta terimi, obodonlashtirishga jalb etildi. Hech kim ulardan ta'lif sifatini so'ramagan. Endilikda o'qituvchilardan faqat ta'lif sifati talab etiladi. Buning uchun ular o'z ustida muntazam ishlashlari kerak.

10-bet

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2020-yil 8-yanvar, chorshanba № 2 (9275)

Xalq ziyolilari gazetası

Yangilik

Variativ o'quv reja haqida nimalar bilasiz?

Umumiy o'rta ta'lif maktablarida joriy o'quv yilining uchinchi choragidan boshlab 10-11-sinflarida fanlar ixtiyoriy tanlov asosida o'qitiladigan bo'ldi. Bu borada 2019-yilning 28-dekabr kuni Xalq ta'lifi vazirining "Umumiy o'rta ta'lif maktablarida variativ oquv rejalarini tajriba-sinovdan o'tkazish" to'g'risidagi 405-sonli buyrug'i chiqdi va u joylarga yetkazildi.



Bu xabar ko'plab o'qituvchilar, ota-onalar va o'quvchilarda turli savollar paydo qildi. Jaron qanday tashkil etiladi? Maktablarda bunga sharoit bormi? Qaysi yo'nalishlarni tanlov fanlarga qamrab olingan? O'quvchilarning barchasi

o'ziga kerakli fanlarni tanlab, boshqasida qatnashmasa, boshqa fanni umuman o'qimasa ham bo'laveradimi? Maqolada mana shu kabi savol-larga javob olishingiz mumkin.

3-bet

Qonunbuzar hokimlar

Yil davomida har bir muammoli magola yuzasidan tegishli mutasaddilarga xal bilan murojaat qildik. Shu harakatimiz natijasida ko'plab ta'lif muassasalaridagi muammo-li holatlarga e'tibor qaratildi, ba'zilari hal etildi, o'qituvchilar haq-huquqlari himoya qilindi. Ammo, ming afsuski, murojaatimizni e'tiborsiz qoldirganchalar ham bor.

8-9-betlar

O'qituvchi nimani o'yaydi?



Qolipdag'i konseptlardan voz kechish payti keldi. Dars jarayonini tezis shaklida tuzish taraf-doriman. Bajariladigan har bir ish qisqa qilib belgilab qo'yilsa bo'ldi-da. Konsept sohaga yangi kirib kelgan pedagoglar uchun majburiy etib belgilanishi kerak. Tajribali o'qituvchilarga esa soddaroq tarzda yozishga ruxsat berilsa, yaxshi bo'lar edi.

Maqsuda BO'RNOVA



Malaka oshirganlik haqidagi sertifikatga ustama ham, toifa ham bog'langan. U bo'limasa, ikkisi ham bekor. Buni yaxshi bilgan "uddaburon" metodistlarimiz malaka oshirishga yo'llanman berishda poroxo'rlikka yo'l qo'ymoqda. Uzunqulqoq gaplarga qaranganda, malaka oshirishga navbatsiz yuborish 100 dollargacha baholanmoqda. Men tanigan ayrim o'qituvchilar hatto bir yillab malaka oshirishga bora olmayapti. Buncha pulni har qanday o'qituvchining cho'ntagi XTB metodistlarining aralashuviga chek qo'yishda elektron tizimga o'tish lozim.

Farhod TOJIBOYEV



Katta farzandimni o'qituvchisi kuni uzaytilir-gan guruhga qatnaganligi uchun siqviga ola boshladi. Bir kuni qo'pollik qiladi, yana bir kuni "2" baho qo'yadi, boshqa kunlari ham ni-malmalnidir o'ylab topadi. Xullas, o'g'limning darslaridan ko'ngli soviyapti. Axir qo'shimcha mashg'ulotlarga qolish majburiy emas-ku. Mening ham pedagogikadan xabarim bor, garchi hozir bu sohada ishlamasam ham. Nima qilishni bilmay boshim qotgan.

Laylo ESONOVA



Maktabda matematika fani 11 yil o'qitiladi, ammo bitiruvchilarning 80 yoki 90 foizi fanni yaxshi o'zlashtira olmasdan, oddiy narsalarni bilmasdan bitiradi. Chunki darsliklar murakkab. Aksariyat mavzular hayotda umuman asqotmaydi. Menimcha, o'quvchilarga bu fanni hayot bilan bog'la-gan holda mantiqiy amallarni ko'proq o'rgatishimiz kerak.

Zulfizar KARIMOVA

2020-yil uchun "Ma'rifat" gazetasiga obuna viloyatlar kesimida

Viloyatlar	Obuna miqdori	Maktablar soni
Qoraqalpog'iston Respublikasi	366	725
Andijon	844	764
Buxoro	585	533
Jizzax	144	548
Navoiy	395	364
Namangan	267	705

QURILISH SOHASIGA INNOVATION TEKNOLOGIYALAR KENG JORIY ETILADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-yanvar kuni qurilish sohasidagi islohotlarni yanada jadallashtirish bo'yicha ustuvor vazifalarga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Mamlakatimizda buniyodkorlik ko'lamni yil sayin kengaymoqda. Yangi uy-joylar, yirik zavodlar, zamonaivy infratuzilma obyektlari barpo etilmoxda. Tabiiyi, bunday katta hajmdagi ishlarni sifatli va o'z vaqtida bajarish uchun malakali quruvchilar va loyihiachilar, barqaror tashkilotlar kerak.

Yig'ilishda qurilish sohasidagi muammo va kamchiliklarni keskin tanqid qilindi. Masalan, mamlakatimizda 22 mingga yaqin qurilish-pudrat tashkiloti bo'lib, ularning aksariyatida ishchilar soni va kasb malakasi to'g'risida ma'lumot yuritilmaydi.

Hududlardagi barcha qurilishlar yagona buyurtmachi xizmati tashkilotlarga topshirib qo'yilgani ko'rsatkichlarga salbiy ta'sir qilmoqda. Ilg'or xorijiy tajribada qurilish xavfsizligi, sifati va natijsasi nazorat qilinsa, bizda barcha kuch va

resurslar jarayonni nazorat qilishga sarflanib, sifat ikkinchi o'runga tushib qolgan.

Davlatimiz rahbari sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish, uni zamonaivy asosda rivojlantirish bo'yicha muhim chora-tadbirlarni belgilab berdi.

Loyihalar institutlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratish, xorijiy tajriba asosida tenderlar o'tkazishning aniq mezonlarini ishlab chiqish, bu borada elektron tizimini eksperiment tariqasida Toshkent shahrida joriy etish bo'yicha topshiriq berildi.

Qurilish, Moliya, Adliya vazirliklari va boshqa mutasaddi tashkilotlarga joriy yil 1-iyulga qadar qurilish korxonalari faoliyatini baholash reytingini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Ushbu reytingda ishchilar soni va malakasi, bajarilgan ishlarni, soliq va kreditlarning o'z vaqtida to'lanishi kabi mezonlar o'z aksini topadi.

Shaharsozlik normalari va qoidalarini hamda yagona buyurtmachi xizmati tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish zarurligi ta'kidlandi.

Sohada axborot texnologiyalaridan foydalanan darajasi pastligi qayd etildi. Jumladan, loyihamoni yaratish, eksperitizadan o'tkazish, qurilishga ruxsat berish, qurilish-pudrat ishlarni nazorat qilish jarayonlari haligacha qog'ozda bajarilyapti. Investor va tadbirkorlar uchun qayerda nima qurish mumkinligi haqida ma'lumot beruvchi geoinformatsion tizim yo'lgan qo'yilmagan.

Shu bois yig'ilishda Qurilish vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga tizimi to'liq raqamlashtirish bo'yicha joriy yilda amalga oshirishga oid "yo'l xaritasi" ishlab chiqish vazifasi yuklatildi.

Sohada texnika xavfsizligi talablariga rioya qilinmayotgani, "risk-analiz" tizimi va nazorat yo'qligi oqibatida baxtsiz hodisalar yuz berayotgani qayd etildi. Tegishli vazirlik va idoralariga qurilish sohasida davlat nazoratini butunlay yangicha asosda tashkil etish, mehnat muhofazasini kuchaytirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Yig'ilishda kadrlar masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Davlatimiz rahbari qurilish sohasi uchun mutaxassislar tayyorlash tizimi bugungi kun talabiga javob bermasligini ta'kidladi.

Mehnat vazirligi, Qurilish vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'limga vazirligiga qurilish sohasida o'rta bo'g'in mutaxassislar va ishchi kasblar klassifikatorini joriy qilish hamda unga muvofiq kollejlarda quruvchilar tayyorlash vazifasi qo'yildi.

Sohaga oid ta'limga dasturlarini yuqori texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar asosida yangidan ishlab chiqish, bo'lajak kadrlarni zamonaivy loyihalash va dasturiy ta'minot, xususan, BIM (Building Information Modeling) texnologiyalari bilan ishlashga o'rgatish lozimligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda muhokama qilingan masalalar bo'yicha mutasaddi rahbarlar hisobot berdi, tegishli chora-tadbirlar belgilab olindи.

O'za

Ijtimoiy tarmoqda nima gaplar?

Ijtimoiy tarmoqlarni "Ma'rifat"da kuzating

Ijtimoiy tarmoqlarning mazmuni — boshi-yu oxiri yo'q mavzularning quramasidan iborat postlar-u izohlar. Uning a'zolari har narsaga qozi, har qanday jarayonga o'z munosabatini bildirishdan qaytmaydi. Ijtimoiy tarmoqqa kirgan kishi borki, umumiyo og'imga qo'shilib axborot olamiga sho'ng'ib ketadi. Keyin dunyoning taqdirini hal qilayotgandek kuyib-pisha boshlaydi. Eng muhim, ularga hech qanday cheklow yo'q. Balki shu sabab ular bugun demokratiyaning bir nishonasi sifatida ko'rilyapti. Ko'p sonli gazetxonalarning qiziqishlarini inobatga olib, ijtimoiy tarmoqlarda hafta davomida shov-shuv bo'lgan mavzularni gazetamiz sahifalarida sharhlab borishga qaror qildik.

Hamma joyda bayram kayfiyat kezib yurgan hafta boshida ijtimoiy tarmoq a'zolari diqqati Farg'ona viloyati hokimiga qaratildi. Blogerlarga qarata aytgan so'zlarini tushirilgan audioyozuv tarqalgan viloyat hokimi bilan Bosh prokuratura shug'ullanishni zimmasiga oлган edi. Yil tugashi arafasida tergovga qadar tekshiruv natijalari ma'lum qilindi. Audioyozuvni tarqatqan blogering "janozasini o'qish" bilan tahdid qilgan hokimning so'zlarida "inson hayotiga va sog'lig'iqa tajovuz qiladigan real tahdid, ya'ni ularning amalga oshirilishidan xavfisirash uchun asoslar mavjud emas", deb topildi. Ammo prokuratura viloyat hokimiga intizomiy chora ko'rish yuzasidan hukumatiga xat yubordi. Bu xabar ijtimoiy tarmoq faollarini junbushga keltirdi. Tarmoq foydalauvchilaridan biri internet olamida salbiy ma'noda mashhur bo'lib ulgurgan hokimga "Muvaffaqiyatga erishish siralar" nomli kitob yozishni "tavsiya" qildi. Boshqa foydalauvchisi esa: "Baxt bu — hamma seni yomon ko'rsa ham hech kim hech nima qila olmasligida", deya Vladimir Putindan iqtibos kelтирди. Farg'onalik fuqaro esa hokim ko'p qovun tushirsra ham, tili yomon bo'lsa ham viloyat budgetini bekordan bekorqa sovurmasligini, har maqtab chiqqan maddohga in'om-ehson beravermasligini e'tirof etadi. Farg'onadek katta viloyatni boshqarish murakkabligini ta'kidlaydi. Amмо ko'pehlik yil davomida tarmoq foydalauvchilarining doimiy "o'la"si bo'lib qolgan Shuhrat G'aniyevni kinoya bilan "yil odami" deb e'tirof etdi.



Ijtimoiy tarmoq fidoyilarini "Facebook"da Otabel Nuriddinov nomi bilan ma'lum bo'lgan blogerning hibsga olinishiga ham kuchli reaksiya bildirdi. Andijon viloyatidagi ta'limga mutasaddilariga qarata yozilgan postlari va munosabatlari sabab blogerga nisbatan da'vo ishi qo'zg'atilgan. Bu xabar ham aynan Shuhrat G'aniyevning ishiga Bosh prokuratura munosabati bilan bir kunda paydo bo'ldi. Tarmoq faollari esa ikki hodisaga qiyosiy munosabat bildirishladi. Ularning nazdida hokim fuqaroni haqorat qilsa, kechirim so'rab qutuladi, fuqaro rahbarini haqorat qilsa, qamaladi. Nuriddinova tuhmat qilish, haqorat qilish, mayda bezorilik ayblovi bilan 15 sutkaga ma'muriy qamoq jazo chorasi qo'llangan. Qonunchilik palatasi deputati Rasul Kusherboyev vaziyatga munosabat bildirib huquqiy baho bergan yagona deputat bo'ldi.

So'yilgan qo'yalar voqeasi AQShning eronlik mashhur general Qosim Sulaymoniyni o'dirgani haqidagi xabarlar fonda biroz unutildi. Eron hukumat Donald Tramp boshi uchun 80 million dollar mukofot va'da qildi. Bu xabar butun dunyo ahli tomonidan shov-shuv bilan kutub olindi. Dunyo siyosiy kuchlari bir-biriga tish qayrab turidiyu, "Barselona" futbol klubining ijtimoiy tarmoqdagi muxlisi Donald Trampga futbol jamaosining murabbiyi Valverdening Eron maxfiy xizmatlari bilan aloqadorligini, sayyoraning kelajagi uchun uni ham biryoqlik qilish kerakligini "taklif" qilgan. Bu izoh 28 mingdan ortiq "like" yig'gan.

Kuni kecha o'tgan yili tomoshabinlar olinishiga sabab bo'lgan "Joker" filmi qahramoni qiyofasidagi fuqaroning Toshkent metro bekatlarining birida olingan suratlari internetda tarqaldi. Undan ham ko'ra uning atrofini o'rab olgan militsiya xodimlari omma e'tiborini ko'proq jalb etdi. Tarmoq foydalauvchilaridan biri Joker kinoda doim muammolar qarshisida tasvirilangani, hayotda ham muammolar qarshisida qolganini istehzo bilan ta'kidlaydi.

Tarmoq foydalauvchilarining ziyoji qismini esa jiddiy muammolar qiyanoqda. Ya'ni yangi Soliq kodeksiga ko'ra, kitob va boshqa bosma mahsulotlardan ham QQS (qo'shilgan qiyamat solig'i) olinishi belgilangani bo'ldi. Shu mavzuda o'tgan brifingda mutasaddilarning imtiyozlar soliq ko'rinishida emas, pul ko'rinishida berilishi ma'qulligi, soliqlar esa hamma uchun bir xil bo'lishi kerakligi haqidagi javobi ziyoilarni qoniqtirmayapti. Buning ustiga, bu sohalarda ishlaydiganlarning qalam haqlaridan olinadigan soliq 12 foizdan 20 foizga oshgani, ularda shartnomasi asosida ishlaydigan ijodiy xodimlarga ham 20 foiz miqdorida soliq solinishi belgilangani ma'lum bo'ldi. Noshir Sanjar Nazar bu jarayonlarga quyidagi sarlavhali posti bilan munosabat bildirgan: "Kitob uchun yomon kunlar boshlanayapti".

Yangi yilning ilk kunlari taniqli aktrisa Madina Muxtorova oilasidagi mashmashalar va Avstraliyaning o't ichida qolgani ham eng ko'p muhokama qilingan mavzu bo'ldi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi jarayonlarning eng "qaymoq"lari bilan tanishib borishni istasangiz, "Ma'rifat"ni kuzating. Keyingi chorshanbada ko'rishguncha!

Ijtimoiy tarmoqlarni Suhrob ZIYO kuzatdi.



Yangilik

Variativ o'quv reja haqida nimalar bilasiz?

(Davomi. Boshi 1-betda)

Variativ o'quv rejani joriy qilish — ixtiyoriy

Avalo, variativ o'quv rejani joriy etishdan maqsad o'quchining manfaatlarni inobatga olish, ularning oliv ta'limga muassasalariga kirish imtihonlari mavjud fanlarni chuqur o'rganishlariga sharoit yaratish, o'quv jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishdan iborat. Ammo, shunday bo'lsa-da, o'quvchi, o'qituvchilar va ota-onalar tomonidan qo'llab-quvvatlanmasa, maktabda variativ o'quv reja bo'yicha tegishli fandan dars berish uchun yetarli malaka va tajribaga

ega o'qituvchilar bo'lmasa, joriy etilmaydi. Shuningdek, variativ o'quv reja amalga oshirilayotgan maktablarda o'quchilarning xohish-istiklaliga ko'ra an'anavyi sinflar ham mavjud bo'ladi. An'anavyi sinflarda 2019/2020-o'quv yiliga mo'ljalangan tayanch o'quv reja asosida dars olib borilsa, tanlov sinflarda variativ o'quv reja amalda bo'ladi. Tanlov sinfida o'quchilar soni 35 nafargacha bo'ladi.

Tanlov sinflar yo'naliishlari:

- xorijiy til va filologiya;
- moliya-iqtisod;
- texnologiya;
- tabiiy fanlar;
- ijtimoiy-gumanitar.

Xorijiy til va filologiya yo'naliishi bo'yicha o'quv reja namunasi

T/r	Fanlar nomi	Haftalik soatlar	
		10-sinf	11-sinf
Majburiy fanlar			
1.	Ona tili va adabiyot	3	3
2.	O'zbek tili/rus tili	3	3
3.	Chet tili	3	3
4.	Tarix	2	2
5.	Matematika	4	5
6.	Informatika	2	2
7.	Ma'naviyat asoslari	0,5	0,5
8.	Jismoniy tarbiya	1,5	1
Jami soat		19	19,5
Tanlov fanlar			
1.	Chet tili	5	5,5
2.	Ona tili va adabiyot	6	6
Jami soat		11	11,5
Umumiy soat		30	31

Moliya-iqtisod yo'naliishi bo'yicha o'quv reja namunasi

T/r	Fanlar nomi	Haftalik soatlar	
		10-sinf	11-sinf
Majburiy fanlar			
1.	Ona tili va adabiyot	3	3
2.	O'zbek tili/rus tili	3	3
3.	Chet tili	3	3
4.	Tarix	2	2
5.	Matematika	4	5
6.	Informatika	2	2
7.	Ma'naviyat asoslari	0,5	0,5
8.	Jismoniy tarbiya	1,5	1
Jami soat		19	19,5
Tanlov fanlar			
1.	Matematika	6	5,5
2.	Chet tili	5	6
Jami soat		11	11,5
Umumiy soat		30	31

Texnologiya yo'naliishi bo'yicha o'quv reja namunasi

T/r	Fanlar nomi	Haftalik soatlar	
		10-sinf	11-sinf
Majburiy fanlar			
1.	Ona tili va adabiyot	3	3
2.	O'zbek tili/rus tili	3	3
3.	Chet tili	3	3
4.	Tarix	2	2
5.	Matematika	4	5
6.	Informatika	2	2
7.	Ma'naviyat asoslari	0,5	0,5
8.	Jismoniy tarbiya	1,5	1
Jami soat		19	19,5
Tanlov fanlar			
1.	Matematika	4	4,5
2.	Fizika	7	7
Jami soat		11	11,5
Umumiy soat		30	31

Tabiiy fanlar yo'naliishi bo'yicha o'quv reja namunasi

T/r	Fanlar nomi	Haftalik soatlar	
		10-sinf	11-sinf
Majburiy fanlar			
1.	Ona tili va adabiyot	3	3
2.	O'zbek tili/rus tili	3	3
3.	Chet tili	3	3
4.	Tarix	2	2
5.	Matematika	4	5
6.	Informatika	2	2
7.	Ma'naviyat asoslari	0,5	0,5
8.	Jismoniy tarbiya	1,5	1
Jami soat		19	19,5
Tanlov fanlar			
1.	Biologiya	5	5,5
2.	Kimyo	6	6
Jami soat		11	11,5
Umumiy soat		30	31

Ijtimoiy-gumanitar yo'naliishi bo'yicha o'quv reja namunasi

T/r	Fanlar nomi	Haftalik soatlar	
		10-sinf	11-sinf
Majburiy fanlar			
1.	Ona tili va adabiyot	3	3
2.	O'zbek tili/rus tili	3	3
3.	Chet tili	3	3
4.	Tarix	2	2
5.	Matematika	4	5
6.	Informatika	2	2
7.	Ma'naviyat asoslari	0,5	0,5
8.	Jismoniy tarbiya	1,5	1
Jami soat		19	19,5
Tanlov fanlar			
1.	Tarix	5	5
2.	Ona tili va adabiyot	6	6,5
Jami soat		11	11,5
Umumiy soat		30	31

Tanlov sinfi yo'naliishi 10-, 11-sinf o'quchilari o'rtaida so'rovnomada o'tkazish orqali aniqlanadi. Bir nafar o'quchchi faqat bitta yo'naliishi tanlaydi. Maktabda barcha yo'naliishdagi tanlov sinflari ochilishi talab etilmaydi. Ya'ni, maktab ichki imkoniyati, pedagoglar darajasidan kelib chiqib, 5 ta yo'naliishdan biri yoki bo nechta ochilishi mumkin.

Tanlov sinflarini joriy etish uchun maxsus komissiya tuziladi. Komissiya tarkibi:

- maktab direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinosari;
- maktab psixologi;
- amaldagi 10-11-sinf rahbarlari;
- fan metodbirlashma rahbarlari;
- ota-onalar qo'mitasi raisi.

Komissiya o'quchilar o'rtaida so'rovnomada o'tkazib, natijasini umumlashtiradi.

Talabgor o'quchilar

35 nafardan oshib ketsa...

Tanlov sinfida o'qishni xohlagan o'quchilar soni 35 nafardan oshib ketsa, maktab tomonidan tegishli fan bo'yicha sinov o'tkaziladi. Natijalarga ko'ra o'quchilar saralab olinadi. Agar tanlov sinfida o'qish istagidagi o'quchilar 35 nafardan oshmasa, hech qanday sinov tashkil etilmaydi. Ota-onalar farzandlarini tanlov sinfiga qabul qilish to'g'risida direktor nomiga ariza bundan mustasno.

yozishlari shart. Zero, o'quchining ertangi kelajagini hal qilishda muhim rol o'ynaydigan ushbu bosqich ota-ona roziligidisiz yoki ularni ogohlantirishsiz tashkil etilmaydi. Agar o'quchchi va ota-ona bola tanlov sinfida o'qishni istamasa, an'anavyi sinfida o'qishni davom ettiraveradi. O'quchilar eng ko'p tannagan yo'naliishi bo'yicha sinflar soniga mutanosib ravishda yangidan sinflarga ajratiladi. Sinflar soni mayjud 10-, 11-sinflar sonidan oshib ketishiga yo'l qo'yilmaydi.

Jarayonda fanlar ikki guruhgab o'linadi:

1. Majburiy fanlar.
2. Tanlov fanlar.

Tanlov sinfida tayanch o'quv rejada belgilangan soatlar doirasida o'quchilar soni 25 nafar va undan ziyod bo'lgan 10-11-sinflarda o'quchilarni ikki guruhga bo'lib o'qitishga ruxsat beriladi (chet tili, informatika, jismoniy tarbiya, o'zbek (rus) tili).

Tanlov fanlarga ajratiladigan qo'shimcha soatlar o'tishda fanlar bo'lib o'qitilmaydi. Jumladan, tanlov fani sifatida tanlangan majburiy fanlar: chet tili, informatika, jismoniy tarbiya, o'zbek (rus) tili fanlari ham ikki guruhga bo'lib o'qitilmaydi. Mazkur fanlarga tayanch o'quv rejada ajratilgan soatlar bundan mustasno.

Hikmatilla DAMINOV,
Respublika ta'lrim markazi direktori

O'qituvchi minbari

Maoshimiz oshdi, ustama esa...

O'ttiz yilga yaqin davr, o'qituvchilik faoliyatim bilan bog'liq unutilmas yillar... Shu zamon va bugungi kun nuqtayi nazaridan faoliyatimi bir qur taftish qilmoq istadim.

Istiqlolning ilk yillarda bizga dars berigan, o'z fanining kuchli mutaxassisini bo'lgan yoshi katta o'qituvchilarimizning sohani tashlab, savdo-sotiqqa o'zini urugani ko'rib ajablanganman. O'sha ustozlardan birinching dars soatlarini ham "O'qituvchi yetishmayapti, yoshsan, quch-quvvating yetadi", deb mening zimmamga yuklashgan, ikki stavkada ikki smenada ishlaganman. Hozirgidek eslaysaman, o'shanda bir oylik maoshimni (2 stavka dars uchun) olgach, oyoq kiyim olish uchun otam bilan bozorga borganman. Ko'nglimda osmon qadar g'urur bilan o'zimga yooqqan oyoq kiyimni qo'llimga olib narxini so'radim-u, tarvuzim qo'lltg'imdan tushgandek bo'ldi.

Hozir ish faoliyatim davomida yangi ishga kelib, oylik maoshidan qoniqmay noligan yosh mutaxassislarini ko'rsam, ularga o'sha voqeani kulib-kulib aytib beraman. Va "Sizlarning hozir olayotgan maoshingizga qa-ancha poyabzal olish mumkin", deb kulib qo'yaman. Yosh mutaxassislariga ibrat bo'lishi uchun ilgarigi davr va hozirgi zamondagi o'zgarishlar, islohotlar haqida qiyoslab so'zlamoqqa urinaman: ikki oylab paxta terganimizda

ham, ismini zo'rg'a yozadigan ferman sinfdoshimning dalasiga maktabdan paxtani begona o'tlardan tozalashga yuborilganimda ham, bu sinfdoshim kun qorong'i ida traktor pritsepiiga men va men kabi hamkaslarimni mindirib, oy yaraqlagan, yulduzlar charaqlagan vaqtda makkab binosi oldida tushirib ketganida ham, bu vaqtda qishloq ko'chalaridan qo'rqa-pisa uyg'a kelganimda bolalaram och o'tirganida ham ishlaganmiz. Bunday vazifalarning biridan ochib, boshqasiga utilardik. Keyinchalik esa bajarilgan va bajarilmagan ishlarimiz uchun kechalari uxlamasdan dasta-dasta qog'oz qoralab, hujjat tayyorlardik. Shunday kezlarini xayolimda o'qituvchining yelkasiga of-toh tegishini, ko'zlarini chaqab dars o'tishini tasavvur qildim. Mana shu orzularim ushalganini ichimdagini gaplarimni to'kib-sochib yozayotganimda ham his etdim.

Tizimdagi islohotlar pedagoglarni ruhlantirganini ta'kidlagan holda aytishim mumkinki, ayrim qog'oz-bolzliklar yoki rasmiyatchiliklar hali ham kamaygani yo'q. O'tgan yilning sentabr oyida qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'limga

muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini moddiy rag'batlantirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 823-sonli qarori bo'yicha ba'zi jarayonlar o'zgarib ketdi. O'zimdan kelib chiqib aytadigan bo'lsam, 275-sonli qaror asosida menga 2018-2019-o'quv yili yakuni uchun 30 foiz ustama belgilangan. Bu oliy toifali o'qituvchi bo'lganim uchun 16 soat darsimga 650000 so'mdan ziyyod summani tashkil qildi. Endilikda ommalashtirish degan parametr bo'yicha 70 ball to'plab, 10 foiz ustamaga ega bo'lyapman. Bu degani har oyda 435000 so'm yo'qotyapman. Bu summa bir yilga 5000000 so'mdan ziynodni tashkil qildi. Men kabi maosh va ustamalarining ma'lum miqdori kesilgan pedagoglar ko'p. Men bu hisob-kitoblar noto'g'ri demoqchi emasman, bu qaror o'qituvchi mehnatini haqiqatda qadrhaydigan, o'z ustida ishlaydigan ijodkor o'qituvchini haqqoniy aniqlaydigan parametrlarga asoslanishini xohlayman, xolos. Har oylik ustamasidan "ajralgan" ayrim o'qituvchilar oila tebratish uchun boshqa yo'naliishlarda ishlashga urinishyapti. Bunday holatda dars berish samaradorligi haqida qanday o'ylash mumkin?

Laylo QURAYZOVA,
Pitnak shahridagi
7-maktab o'qituvchisi

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi 823-sonli qarori o'qituvchini yanada ko'proq mehnat qilishga undamoqda. Ushbu qarorda o'qituvchiga oldingi — 275-sonli qarordan ham ko'proq yon bosilgan, desam adashmagan bo'laman.

Haqiqiy fidoyilar saralanadi

Pedagoglarning faoliyati qarorda ko'rsatilgan har bir bandga to'liq javob bersa, yetarli balni to'play olsa, bu o'qituvchi munosib rag'batlantiriladi. Hattoki boshlang'ich va yuqori sinf o'qituvchilariga alohida e'tibor qaratilgan. Sinf rahbarligiga ball berilgan. Oldin ayrim o'qituvchilar sinf rahbarligini olishni istamasdi. Boshlang'ich sinflarda olimpiada va bilimlar bellashuvu kabilar bo'lmagan uchun ochiq darslar, tadbirlar va ko'rik-tanlovlariga ko'p e'tibor berilgan. Bundan buyon yaxshi natijaga erishgan o'qituvchi, albatta, yaxshigina moddiy rag'batlantirilishi quvonarli.

Oldin sinf rahbarligi bo'lmagan ustoz ham boshqalar bilan teng ustama olar edi. Bunda agar sinf rahbarligi bo'lmasa, o'z-o'zidan bali kamayadi. O'qituvchi mehnati farqlanyapti. Agar u shahar, viloyat, respublika miqyosida biror natijaga erishgan bo'lsa, boshqalaridan ko'proq ustama olishga haqli bo'lyapti. Ko'rindaniki, ustozlar ko'proq ustama olish uchun bundan-da yaxshiroq harakat qiladi. O'z ustida ishlaydi.

Shohidaxon MELIQO'ZIYEVA,
Qo'qon shahridagi
22-maktab o'qituvchisi

"Har bir talab ko'rsatkichi bo'yicha bir savol"

Har jabbadagi muammolar, yechimlar, ish sifati, maqsad va rejalarini ana shu soha mutaxassislaridan yaxshiroq biladigan kishi bo'limasa kerak. O'quv yilining yarmiga yetmasdan ustama haqidagi qaror o'zgargani, o'qituvchilarning bazaviy tarif stavkalari ham turlicha bo'lishi pedagogik jamaoa o'rtasida norozi kaiyiatlarga sabab bo'ldi. To'g'ri, har oylik ustamalar ularning kasbiy mahorati, ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy va sinfdan tashqari ishlar uchun belgilangan mezonlar haqiqatga yaqin. Ammo birinchi talablar qatorida sinf jurnalidagi choraklik baholarning o'rtacha ko'rsatkichi hisobga olinyapti. Bu joriy va oralig' nazorat baholari, choraklik va yillik baholarning o'rtacha qiymatiga asoslangan. U o'qituvchisi asosiy ta'limiylar natijalarining yakuniy ko'rsatkichi hisoblanadi. Ushbu talab har qancha to'g'ri bo'limasin, keyingi o'quv yilidan boshlab maksimal baho olish uchun o'quvchilar o'zlashtirishining sifati darajasini sun'iy ko'tarishga ommaviy tus berish ehtimoli mavjud. Ikkinci talab ko'rsatkichi esa fan olimpiadalarini, bilimlar belashuvida va boshqa ko'rik-tanlovlardagi ishtiroki uchun 20 baho berilyapti. Tumanimizdagi 67 ta maktab ichidan tanlovlarda faxrli o'rinlarni oltagan makkablar soni sanogli bo'lishi tabiiy. Endi o'qituvchilar o'z o'quvchisi to'plashi mumkin bo'lgan maksimal balning ulush foizini ko'tarish maqsadida yo'li axtarishadi. Yana bir ko'rsatkichi — o'qituvchi ish tajribasining maktab, tuman, viloyat va respublika miqyosida ommalashtirilganligi. Bu ko'rsatkichi avallari o'qituvchi ustamasi uchun u qadar ahamiyatli mezon sifatida e'tibor qaratilmaganligi bois hozir kutilmagan jarayon bo'ldi. Ammo uni amalga oshirish ham juda murakkab. Bahol bali yig'ish ehtimoli qiyin. Masalan, makkabimiz misolida olsak, jamoada 72 nafar o'qituvchi ishlaydi. Bir o'quv yilda ulardan qanchasining maktab miqyosida ishlarini ommalashtirish mumkin? Tuman miqyosida-chi? Agar bu ko'rsatkichi viloyat yoki respublika miqyosida tasavvur qilsak, makkablar soniga nisbatan olinganida jamoamizdagi har bir o'qituvchi yig'ishi mumkin bo'lgan baho bali im-

koniyati nolga teng bo'lib ko'rindi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, turli hududlarda dars berayotgan o'qituvchilar darsini ommalashtirilmasa, qilayotgan mehnati past baholanadimi! Shu xulosani boshqa ko'rsatkich bilabada ham ko'rish mumkin: o'qituvchi ilmiy-ijodiy ishlarining maksimal balda baholanishiga nisbatan ham aytish mumkin. Bu yerda ham imkoniyatda darajasi juda cheklangan.

Qarorda ustama belgilanishi sinf rahbarlarining ish samaradorligiga qarab berilishi ham belgilangan. Bu ko'rsatikchning kiritilganligi o'qituvchining tarbiyaviy va sinfdan tashqari faoliyatining baholanishiga asos bo'ladi. Bu juda o'rinnli. Lekin pedagogik jamaoa orasidan faqat sinf rahbarlariga imkon berilishi adolatsizlikni keltirib chiqaradi. 8-ko'rsatikich o'qituvchining sinfdan tashqari faoliyati fidoyiliginining samaradorligini baholaydigan eng yaxshi mezon bo'libdi. Ayniqsa, kuch-g'ayratga to'la yosh pedagoglar uchun bir zo'r imkoniyati eshlari desam, adashmagan bo'laman. Ammo pedagogik faoliyatining ko'p vaqtini oluvchi, ko'p fotolavha, fotohujjat va hisobotlar, ish reja va konseptlar tayyorlashni talab etuvchi ushbu ko'rsatkich mezonni biroz mashaqqatlari, buni 10 baldan 20 balgacha oshirish kerak. Afsuski, bu jayron ayrim qog'ozbozliklarsiz amalga oshirilsa yaxshi bo'lardi. Yana bir talab shuki, pedagog qanday ilmiy-metodik jurnal, qaysi veb-saytlarda maqola chiqarish kerak. Shaxsan men bir maqola yozish uchun olti oylab vaqt sarflagan paytlarim bo'lgan. O'qituvchilarning aksariyati o'z kasbinining fidoyisi, bilimdoni bo'lishi mumkin, ammo maqola yozishga uquvi kelmas. Ular endi ustama olish maqsadida maqola yoza olishlari kerak! Mezonning 10-ko'rsatikich juda ko'p savollarni keltirib chiqardi. Masalan, pedagoglar faoliyatini baholash mezonlari ko'rsatkichlarini psixolog va kutubxonachilar faoliyati bilan bog'lash yoki tatbiq qilish mutlaqo noto'g'ri. Bu hujjatdagi talablar va ko'rsatkich me'yordi hali pedagogik jamaoalarning ko'p muhokamalari, savolriga sabab bo'ladi, nazarimizda. Siz nima deysiz?

Oqiljon MAVLONOV,
O'zbekiston tumanidagi 16-maktab o'qituvchisi

Vazirlar Mahkamasining muhokamalarga sabab bo'layotgan 823-sonli qarorining bir qator afzalliklari bor deb o'layman. Amaldagi 275-sonli qarordan ko'pchilik rahbarlar "o'z ixtiyoriga ko'ra" foydalaniib kelgani hech kimga sir emas.

Endi ishlaragan tishlamaydi

"823" haqida bir shingil

Maktablarda umrida olimpiada, bilimlar belashuvi nimaligini bilmaydigan, jonini koyitmagan o'qituvchi mehnat qilib, yuqori natijalarini ko'rsatib kelayotgan muallimlar bilan teng 30-35 foiz ustama olib kelayotgani tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik kabi illatlarining avj olishiga sabab bo'layotganiga guvohniz. Yangi qarorga ko'ra, endi bunday ko'zbo'yamachilikka yo'li qo'yishning imkonini kam, negaki unda har bir bo'lim bo'yicha qo'yiladigan ball aniq asoslab ko'rsatib berilgan. Endi ishlaragan tishlamaydi, xalq tili bilan aytganda. Hujjatlar yig'ma jildida ham aniq natijaga isbot ko'rsatilmasa, ustama belgilanmaydi. Yana bir afzalligi — ish staji va malaka oshirishda o'tganligiga beriladigan ball. Ko'p yillar mehnat qilgan ustozlarning mehnati ham qadr topadi, o'z muddatida malaka oshirish kurslarini o'tamaganlar esa ustamada yetarli ball ololmaydi. Ayrim tumanlarda 5 yil, hatto 10 yil o'tsa ham malaka oshirish kurslariga bir bora kelmagan o'qituvchilar borligini eshitganimda, hayratdan yoqa ushlaganman. Bir so'z bilan aytganda, bu qaror o'qituvchini ishlashga, harakat qilishga, o'rnak ko'rsatgan degan nomiga munosib bolishga undaydi.

Dilafro'z BOBOJONOVA,
Jizzax shahridagi UMID nomli
maktab-internat o'qituvchisi

Ancha yillardan buyon ko'pchilik mas'ullar diktant va insho yozdirishni faqat ona tili o'qituvchilariga yuklab qo'yadi.

Fikr, mulohaza, taklif

Ilm-fanimiz oyog'idagi tushov

bu ko'rinnmas, ammo o'ta qudratli zanjirdan qanday qutulish mumkin?

So'nggi yillarda yurtimizda barcha sohalar qatori ilm-fanda ham o'zgarishlar, yangilanishlar kuzatilmoxda. Aslida ilm-fan, texnologik yangiliklar turli sohalar ravnaqiga katta kuch berishi va bu orqali davlat va jamiyat rivojlanishi kerak. Dunyo tajribasida ilmiy sohaga kompleks yondashiladi.

Jahon qishloq xo'jaligida yo'lga qo'yilgan klasterlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Xususan, yurtimiz qishloq xo'jaligida ham klaster tizimi amaliyotga keng tatbiq etila boshladi. Mazkur tajribadan o'tgan tizimni mamlakatimiz iqtisodiyotidagi barcha ishlab chiqarish sohalariga, shu jumladan, ilm-fan sohasiga ham tatbiq etish zarur. Ilmiy ishlamma hamda kashfiyotlarni amaliyotga joriy qilish, ularning bozor talabiga mosligi va xaridorligini oshirishga xizmat qiladigan tizim yaratish lozim.

Avvalo, barcha fan sohalari, innovatsiyalar, tajridiy rivojlanish izchil o'rganilishi, ular bo'yicha keng miyqosli ilmiy ishlar olib borilishi kerak. Ilmiy ishlar yuzasidan aniq amaliy ahamiyatga ega tavisiyalar ishlab chiqish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish va tarixchi olimlarning barcha sohalardagi olimlar bilan keng muloqot olib borishi uchun sharoit yaratish, ya'ni fanlararo klasterlar tuzish talab etiladi.

Tariximizdan bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Misol uchun, Ma'mun akademiyasi fanlararo muloqot tizimida faoliyat yuritgan. Akademiyaning ish tizimini chuqr o'rganish va undan amaliyotda foydalish ilmiy ishlar samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Tarixchi olimlarimiz tomonidan nafaqat fan tarixi, balki davlat qurilishi, iqtisodiyot va soliq ishlari, ijtimoiy siyosat, me'morchilik, ma'naviy-ma'rifiy sohalar va boshqalar tarixi ham chuqr tadtiq qetilishi davrning muhim talabiga aylandi.

Yurtimizda olib borilayotgan siyosiy islohotlar boshqaruv tuzilmalarining bir-birini tiyib turishi va hech birida kuch to'planmasligiga qaratilgan. Bu tartib-tamoyil fan sohasida ham qo'llanilsa, kutilgan samarani berishi tabii. Natijada fan taqdirliri bir hovuch odamlar hal qilmaydi, barcha iqtidori

kishilar uchun birdek imkoniyat yaratiladi.

Tan olish kerakki, yurtimizda yangi ilmiy kashfiyotlarni ishlab chiqarishga joriy qilish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari, talab va taklif yaxshi o'rganilmaydi. Sobiq Ittifoq davrida ana shu asriy tajribalar yo'q qilindi. Mustabid tuzumdan meros iqtisodiy qarashlar formati ham fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shuningdek, xalqimiz orasida ilmiy darajasi bo'lmasa ham texnologiyalarni yaxshi biladigan, ratsionalizatorlik salohiyatiga ega yoshlar va bilimdon kishilar ko'p. Ular o'rtasida tanlovlari o'tkazish orqali eng sara ishlanmalarini amaliyotga joriy etish kerak. Aslida bugun xalqimiz ongida ilmiy salohiyatni oshirishga moyillik oshmoqda. Yoshlarimiz jahon olimpiadalarida g'olib bo'lmoqda. Bu ularning ijodiy salohiyatini yuksaltiradi va keyinchalik katta yangiliklarni yaratishlariga zamin hozirlaydi. Shuningdek, nomdor stipendiyalar sohiblari, olimpiada g'oliblari oldiga ham muayyan talablar qo'yilishi va ular ilmiy ishlarga yo'naltirilishi lozim.

Afsuski, qotib qolgan qarashlarga asoslangan ilmiytadqiqot tizimining zanjirlari hali uzilgani, ilm-fan to'la mahoda ozodlikka etisholgani yo'q. O'zbekistonda Oliy attestatsiya sobiq ittifoq davridan qolgan eski qoliplar asosida faoliyat yuritayotgani fan taraqqiyotiga to'siq bo'layotganga o'xshaydi.

Shu o'rinda bu tuzilma faoliyatiga doir ayrim savollar tug'iladi. Nima uchun aynan ixtisoslashgan kengashlarda bir-birini qo'llab turadigan odamlar to'planib olgan? Mahalliychilik, tanish-bilishchilik bu sohaga

yot-begona bo'lishi kerak emasmi?

OAK ekspertlari ham go'yo maxsus tanlanganga o'xshaydi. Aslida ular xolis va iqtidori olimlardan bo'lishi lozim. Masalan, tarix fani bo'yicha ixtisoslashirtilgan kengash ekspertlari orasida Kamoliddin Shamsiddin, Ashraf Ahmedov, Ablat Xo'jayev, Rustam Sulaymonov, Sherzod Abdullaev kabi iqtidori olimlar doimo bo'lishi kerak. Ular kelajakda akademiklikka loyiq olimlardir. Shu bilan birga akademiklarning saylanishidagi og'ir talablar ham olib tashlanishi lozim. Afsuski, yurtimizda qanchadan qancha iqtidori olimlarning

tantlar tomonidan uncha dolzarb bo'Imagan mavzular tanlanadi. Bugungi kunda biror amal kurisisini egallash uchungina ilmiy daraja olganlar ham talaygina. Hozir ixtisoslashgan kengashlarda katta kuch bo'lib xizmat qiladigan, uni zimdan boshqaradigan, toshi tarozi bosadigan" professorlarni ilmiy rahbar sifatida tanlash urchga aylandi. Aslida bu an'ana sovet davridan beri davom etib kelmoqda. Guruhbozlik, tanish-bilishchilik, faqat muayyan guruhlarning manfaatlari ilgari surilishi tufayli mamlakatda fan rivojlanishi sust kechmoqda. Ilmiy daraja olishga salohiyati noloyiqlar ham dissertatsiya yoqlamoqdalar. Bir

olimlar bilan muloqot qilish va ilmiy ish himoyasini birgalikda tashkil etish mumkin. Masalan, xorijdagi OTMlarning har birida ko'p tarmoqli kengashlar ishlab turibdi.

Turli oliy o'quv yurtlari da faoliyat yuritayotgan olimlar asosan o'zlarini ishlayotgan OTMdagi mutaxassisliklar tauridi bo'yicha ilmiy izlanish olib borsa va o'sha oliy ta'lim muassasining mutaxassis olimlari bilan hamkorlikni yo'lsa qo'yisa, Ixtisoslashgan kengashlarga a'zo bo'lsa, kelajakda ijobiy natijalar kutilishi mumkin.

Aslida bugun amaliy ahamiyatga molik va yangiliklarga boy mavzular tanlanishi, umuman har bir sohada yangi-yangi qirralar ochilishi lozim.

Fan-teknikanining oyog'iga tushov bo'lib turgan bu ko'rinnmas, ammo o'ta qudratli zanjirdan qanday qutulish mumkin?

Himoya qilish usullari, kengashlar tarkibi, ularga muqobil kengashlar yaratish, ilmiy ishlarning sifatini ko'tarish, himoyadan keyin ham 10 yil davomida olimming o'z pozitsiyasini saqlab qolishi, ilmiy yangiliklarni xalqqa yetkazishi, amaliyotga joriy etishi kabi ko'plab qoidalar qaytadan ishlab chiqilishi zarur.

Kamdan kam shogirdi ilmiy ish yoqlagan. Yuqorida tilga olin-gan olimlarning ham shogirdlari ko'p emas.

Bizda yozilgan kitob va ilmiy maqolalar ko'pincha taqrizdan o'tkazilmaydi va tekshirilmaydi. Plagiatlik ilmning ku-shandasiga aylanib, palak yozmoqda. Bir davrga taalluqli materiallardan turli mavzularni yoritishda foydalilmoxda.

Oqibatda ilmiy-amaliy ahamiyati past ilmiy ishlar, falsafa doktori va fan doktori darajasiga noloyiq insonlar ilm sahnasiga kelib qolmoqda.

Yosh iqtidori larning fan maydonini tashlab ketish holati ham kuzatilmoxda. Bugungi avlod ongida "Qaysi ilmiy rahbar kengash a'zosi va so'zi o'tadigan bo'lsa, shuning shogirdi ilmiy ishini muvaffaqiyatlari yoqlaydi", degan tushuncha shakkandi.

Yoshlar orasida "ilmiy rahbar tanlash 50 foiz muvaffaqiyatdir" degan qo'da ustuvor bo'lib qoldi. Bu an'analar ta'sirida disser-

davrga va bir-biriga o'ta yaqin mavzular tanlanmoqda va tezlik bilan yoqlanmoqda.

Shu kungacha ko'plab yengil-yelpi mavzularda grantlar olindi va ularning amaliy natijalari ham tabiiyoti kam bo'idi. Endi amaliyot bilan bog'lanmagan va taraqqiyotga hissa qo'shmaydigan loyihalarning bahridan o'tish kerak.

Bugungi korruption tizim davr talabiga javob bera olmaydi. Davr bilan hamnafas, kerak bo'lsa, bir necha qadam oldindan bo'Imagan fanning davlat va jamiyatga qanday foydasi tegishi mumkin?

Bu kamchiliklarni bar-tarf etish uchun oliy ta'lim muassasalarida ishlayotgan no-mutaxassis xodimlarga ham bir martalik himoya ruxsat berish yoki kamida 4-5 nafar fan doktori bo'lgan taqdirda Ixtisoslashgan kengashlar ochish masalasi ham ko'rib chiqilishi zarur. Muammolarning xususiyatidan kelib chiqib, fanlar kesimida

himoyadan keyin e'lon qilingan ishlarda dissertationning o'z-zining plagiatiga aylanib qolmasligi, ko'chirmachilik daramasini o'rganish uchun kuchli dasturlar ishlab chiqilishi lozim.

Bugun jahonda tezlik bilan raqamli va aqlli yondashuvlar hamma sohalar qatori gumanitar fanlar tizimiga ham kirib bormoqda. Ilmiy tadqiqotlar raqobati kundan kun kuchayib, keng maydonlarni egallamoqda. Bu sharoida hozirgi tizim bilan katta natijalarga erishish qiyin masaladir. Ilm sohasida katta o'zgarishlar, islohotlar yo'li bilangina fan oldidagi g'ovlar olib tashlanishi mumkin. Zero, fanning maqsadi turli sohalarga oid aniq muammolar yechimini topish, ularni amaliyotga joriy etish, menejment va marketingni shakkantirish va ularni rivojlantirish orqali davlat va jamiyat ravnaqi uchun xizmat qilishdan iborat bo'lmog'i kerak.

Shohistaxon O'LJAYEVA,
tarix fanlari doktori

Qotib qolgan qarashlarga asoslangan ilmiytadqiqot tizimining zanjirlari hali uzilgani, ilm-fan to'la mahoda ozodlikka etisholgani yo'q. O'zbekistonda Oliy attestatsiya sobiq ittifoq davridan qolgan eski qoliplar asosida faoliyat yuritayotgani fan taraqqiyotiga to'siq bo'layotganga o'xshaydi.

Agar o'qituvchining fikrlash darajasi yuqori bo'lsa, bu savollarni yanada qiziqarli qilib tuzishi mumkin.

Sinab ko'ring

"TIMSS bilimdoni" testlari

Hozir PISA va TIMSS xalqaro baholash tizimlari haqida ko'p gapirilyapti. TIMSS matabda matematika va tabiiy fanlarni o'qitish sifatining xalqaro monitoringi bo'lib, ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan o'tkaziladi. Ushbu tadqiqot turli davlatlardagi 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga yordam beradi. Qo'shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha berilayotgan ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, o'quv muassasasi imkoniyati, o'qituvchilar salohiyati, o'quvchilarning oilalari bilan bog'liq omillar o'rGANILADI. Ushbu ma'lumotlar belgilangan fanlarni o'zlashtirish holatini ko'rsatishda asos bo'ladi. Tadqiqot to'rt yilda bir marta dunyoning ko'plab ilmiy-tadqiqot markazlari va tashkilotlari, xususan, AQShning Ta'lim sohasidagi test xizmatlari, Kanada statistika markazi, Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasining kotibi yoki ishtirokida o'tkaziladi. Shuningdek, turli davlatlar mutaxassislaridan iborat maslahat qo'mitalari tashkil etiladi.


TIMSS test topshirqlari 4 ta murakkablik darajasida tuziladi va soddadan murakkablikka qarab boradi. Agar o'qituvchining fikrlash darajasi yuqori bo'lsa, bu savollarni yanada qiziqarli qilib tuzishi mumkin. Quyida 4-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha bilim darajasi va sifatini solishtirish uchun xalqaro baholash tizimi asosida tuzgan savollarimni e'tiboringizga havola etmoqchiman. Siz ham ularni darslarda qo'llab ko'ring.

1. Soatda necha daqiqa bor?

- a) 12
- b) 24
- c) 60
- d) 120
- e) 120

2. Qaysi to'rtburchakning $\frac{1}{4}$ qismi bo'yalgan?


- a) 1
- b) 2
- c) 3
- d) 4



3. Kasrlardan qaysi biri eng kattasi?


- a) $\frac{1}{2}$
- b) $\frac{1}{3}$
- c) $\frac{1}{4}$
- d) $\frac{1}{5}$

4. G'ishtli devor 9 qator qilib terilgan. Devorning balandligi 180 sm. Agar g'ishtli devor 4 qator terilganda balandligi qancha bo'lar edi?



Javob: ____ sm.

5. Uchburchak tomoni 1 sm.ga teng bo'lgan setka ustiga joylashtirilgan. Uchburchakning yuzasi necha sm^2 ga teng?



- a) 4 kv sm
- b) 8 kv sm
- c) 12 kv sm
- d) 16 kv sm

6. Quti kubiklardan yasalgan. Quagini yasash uchun nechta kubik kerak bo'lgan?

- a) 10
- b) 26
- c) 30
- d) 31



7. Azizaning 500 so'm puli bor. 110 so'mga bir nechta daftар sobit oldi. U yana nechta daftар sobit olsa bo'ladi?

Javob: ____ daftari
Tushuntirish: _____



- a) ★
- b) *
- c) ☺
- d) ○

9. Abdulla 24 yoshda.

U Nigoradan ____ yosh katta.

Pastdagiga javoblardan qaysi biri Nigoraning yoshini ko'rsatadi?

- a) 24 - □
- b) □ + 24
- c) □ - 24
- d) 24 · □

10. Quyida berilgan qaysi javoblardan biri 4621-687 ifodanigan aniq javobi hisoblanadi?

- a) 3000
- b) 3700
- c) 3900
- d) 4000

Xurshidaxon SOLIYEVA,
Rishton tumanidagi
1-maktab o'qituvchisi

"Tanlab javob ber"

Darsliklarga hamohang tarzda interfaol metod va innovatsion texnologiyalardan foydalanan dars unumdarligini oshiradi, o'quvchilarning fanga qiziqishini kuchaytiradi. Jumladan, "Tanlab javob ber" metodi samarali bo'lub, bolalarni mustaqil ishlash, kreativ fikrlash, faol bo'lishga undaydi.

Quyidagi jadval orqali o'quvchilar bilimini tekshiramiz. Bunda kuchik raqam savol kodini, kattasi bahoni bildiradi.

1	2	3	4	5	6
4	5	3	5	1	2
7	8	9	10	11	12
5	1	4	2	5	3

13	14	15	16	17	18
2	3	4	5	4	1

O'quvchi xohishiga qarab biror kodni tanlaydi. Katta hajimli raqamlar savollarning murakkablik darjasini belgilaydi. Masalan, 9 kodni tanlansa, tagida 4 turib-

di, demak, bu yerda o'rtacha qiyinlikdagi savol bor. O'qituvchi har bir raqam ostidagi savollarni o'ziga belgilab oladi. Bu orqali o'qituvchining mavzuga qay dar-

jada tayyor ekanini ham bilish mumkin. O'quvchilar o'zi tanlagan savolga javob berolsa, bahoga ega bo'ladi. Agar javob berolmasa, bilgan o'quvchidan so'raladi va baho unga qo'yiladi. Shu tarzda o'quvchilarning fanga qiziqishini oshirish mumkin. Qolaversa, bu usul xotirani mustahkamlashda ham juda qo'l keladi.

Masalan, "O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatining tashkil etilishi" mavzusiga doir savollardan namuna:

1. O'zbekistonning o'z yangilamish va taraqqiyot yo'li nechta prinsipga asoslanadi? (5 baho)

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasini izohlang. (4 baho)

3. Qonun nima? (3 baho)

To'g'ri javoblar to'planib, o'quvchilar baholanadi. "Tanlab javob ber" metodidan nafaqat huquq, balki boshqa fanlar doirasida ham foydalanan mumkin.

Venera JALOLOVA,
Romitan tumanidagi
13-maktab o'qituvchisi



AQSHDA ABDULLA QODIRIYNING "O'TKAN KUNLAR" ROMANI INGLIZ TILIDA NASHR ETILDI

Avval xabar qilinganidek, yaqinda tavalludining 125 yilligi yurtimizda va xalqaro miqyosda keng nishonlangan buyuk adibimiz Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani ilk bor bevosita o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilindi va Amerika Qo'shma Shtatlarida "Bygone days" nomi ostida kitob holida chop etildi.

2019-yil 27-dekabrda O'zbekistonning AQShdagi elchixonasida ushbu kitob taqdimoti bo'lib o'tdi. Yangi kitobning ilk nusxalarini AQShdagi davlat tashkilotlari, yetakchi oliy ta'lif muassasalari va ushbu mamlakatda akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik korpus vakillariga tarqatildi.

U AQShning eng yirik kutubxonasi — Kongress kutubxonasi katalogiga kiritildi. Shuningdek, ushbu asar e-book shaklida ham chop etilgan.

Mashhur asar tarjimasi amerikalik taniqli tarjimon va tadqiqotchi Mark Edward Riz tomonidan amalga oshirilgan.

Mark Edward Riz 1969-yilda AQShning Arizona shtatida tug'ilgan. Jorj Washington nomidagi universitetini "Ural, Kazakstan va Markaziy Osiyo xalqlari adabiyotii" mutaxassisligi bo'yicha tamomlagan. 1994–1996-yillarda Tinchlik korpusining ko'ngilli vakili sifatida O'zbekistonda ishlab, Qo'qon

shahridagi o'rta maktabda ingliz tili fanidan saboq bergan. Shuningdek, AQSh Davlat departamenti hamkorlik dasturining O'zbekiston bo'yicha direktori bo'lib ishlagan.


Mark Riz 2017-yilda poytaxtimizning Samarqand darvoza mahallasidagi Abdulla Qodiri yashab ijod etgan xonadonda bo'lib, adib ijodiy merosini chuhur o'rgangan.

Tarjimon ushbu ko'lAMDOR romanini ingliz tiliga o'girish uchun 15 yillardan ortiq vaqt sarflagan va 660 betdan iborat asar amerikalik o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun unga 400 dan ortiq tushuncha va izohlar yozgan.

Ayni paytda roman o'quvchilar tomonidan aniqlanadijan "Besh yulduzli" reytingda yuqori bahoga sazovor bo'lmoqda.

Mark Riz Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodi, uning zamonaviy va zamondoshlari, "O'tkan kunlar" romanidagi siyamolar haqida ma'lumotlar beruvchi theuzbekmodernist.com veb-saytini ham yaratagan.

Kuni kecha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nomiga "Bygone days" kitobi va Mark Edward Rizdan maktub keldi. Quyida ushbu maktub matni e'lon qilinmoqda.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

President Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylari!

Sizga 1994–1996-yillarda Tinchlik korpusining ko'ngilli xodimi sifatida O'zbekistonda, Qo'qonda o'z xizmat faoliyatimni boshlaganimdan so'ng yigirma besh yil o'tib xat yo'llash men uchun katta sharafdir. Oddiy o'zbek maktabida o'qituvchi bo'lib ishlagan davrim mening hayotimni beqiyos darajada boyitgan sayohatning muqaddimasi bo'ldi va Sizga yo'llanayotgan ushbu maktub ana shu sayohatning avj nuqtasidir.

Haqiqatan ham shunday, men ayni paytda ingliz tiliga tarjima qilib tugatgan Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani Markaziy Osiyo va jahon adabiyotida o'xshashi yo'q asardir.

Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodini o'rganish men uchun shunchaki o'quv mashg'uloti vazifasini o'tagani yo'q. Asar tarjimasi mendan katta kuch talab etganining boisi shundaki, adib romanga shunchaki "personajlar" ni emas, balki mening hayotiy qarashlarimni shakkantirgan qissani jo etgan.

Asardagi Otobek, Kumush yoki men yaxshi ko'radian Hasanali kabi adabiy personajlar nomigagina tahlil qilib o'tiladigan mavhum, to'qima obrazlar emas. Ushbu mashhur obrazlar timsolidan men butun professional faoliyatim davomida Toshkent, Qo'qon hamda Washingtonda yashab, birga ishlagan insonlar qiyofasini ko'raman.

Shu tariqa men o'n besh yil mobaynidagi ish jarayonida nafaqat adib tiliga xos nozik jihatlarni,

balki 1938-yilda uning qatag'onga uchrashi va o'limiga sabab bo'lgan, asarlariga jo etilgan chin-nakam milliy ruhni ilg'ashga muvaffaq bo'ldim.

1994-yilda o'zbeklar, garchi ular uchun bundan hech qanday naf bo'lmasa-da, meni o'z xonadonlari da ko'p bor mehmon qilishdi Xuddi o'z yaqinlaridek ko'rib, Qo'qondagi Jome' masjidida birligida ibodatga ham olib borishi. Ularning milliy romanini ingliz tiliga tarjima qilish orqali men ham bu insonlarga ana shunday munosib hurmat-ehtirom ko'rsatishga burchliman.

Har qanday katta ish singari roman tarjimasi ham ulkan shaxsiy safarbarlikni talab etdi. Mening umidim va ishonchim shundaki, qachondir o'g'lim bu kitobni qo'liga olar ekan, uning otasi yer yuzida shunchaki umrguzaronlik qilmagani, balki nedir qimmatli bir ishni ado etib ketganini anglaydi. Siz ham ota sifatida ayni shunday hissiyotni his qilasiz, deb ishonaman.

O'tgan haftada mamlakatingiz elchisi Javlon Vahobov va O'zbekiston elchixonasi xodimlari tomonidan kamtarona xizmatimning yuksak darajada e'tirof etilishi mehnat faoliyatimdagagi ajoyib lahzalar bo'lib qolishini alohida ta'kidlab o'tishni istardim.

